



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

**Izoh:** 2024-yil yanvar-iyun holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



## XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatida 2024- yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni 2 009,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 13,6 ming kishiga yoki 0,7 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 663,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,0 %), qishloq aholisi soni 1345,6 ming kishini (67,0 %) tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**2 009,2** ming  
kishi

### Tabiiy o'sish

**(+) 14,5** ming  
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



**33,0%**

#### Qishloq



**67,0%**

Doimiy aholi sonining yillar bo'yicha taqsimlanishi



## Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar


2024- yil yanvar-iyun



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar




2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,1 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,6 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,3 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yanvar-iyun oylarida doimiy aholi sonining tarkibi (ming kishi)



QISHLOQ SHAHAR

2024-yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha doimiy aholi soni va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati




## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga



1005,8 ming kishi




1003,4 ming kishi

## Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1971,7	2009,2	101,9
shaharlar :			
Urganch sh.	151,7	154,3	101,7
Xiva sh.	97,6	99,1	101,5
tumanlar:			
Bog'ot	173,9	177,4	102,0
Gurlan	155,6	158,3	101,7
Qo'shko'pir	179,7	183,1	101,9
Urganch	211,0	215,5	102,1
Hazorasp	203,6	207,5	101,9
Tuproqqa'l'a	58,6	59,9	102,2
Xonqa	196,2	199,8	101,8
Xiva	152,5	155,9	102,2
Shovot	178,1	181,5	101,9
Yangiariq	121,7	123,8	101,7
Yangibozor	91,5	93,1	101,7


**Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi**  
*2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*



Viloyatda 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 332 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2023- yil 1- iyul holatiga 1 kv.km.ga 326 kishi bo'lган).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 5143 kishi, Xiva shahrida 3303 kishi, Urganch tumanida 479 kishi, Hazorasp tumanida 461 kishi, Xonqa tumanida 465 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqa'l'a tumanida 37 kishi, Yangibozor tumanida 274 kishi, Yangiariq tumanida 310 kishi, Qo'shko'pir tumanida 339 kishini tashkil etgan.

**Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi**  
*1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*



## QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



*Yillar kesimida soni*




*Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)*

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**

Urganch sh.	1741	22,8%
Xiva sh.	784	15,9%
Bog'ot	1766	20,1%
Gurlan	1560	19,9%
Qo'shko'pir	1346	14,8%
Urganch	1971	18,5%
Hazorasp	2271	22,1%
Tuproqqa'l'a	627	21,1%
Xonqa	1956	19,8%
Xiva	1210	15,7%
Shovot	1543	17,1%
Yangiariq	1053	17,1%
Yangibozor	880	19,1%

**Shahar va tumanlar kesimida tug'ilshlar soni**

2024-yil yanvar-iyun, kishi



2024-yil yanvar-iyun oylarida 18 708 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,8 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 0,6 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 19,4 promilleni tashkil etgan).

## Vafot etganlar soni


**Yillar kesimida soni**

3 918

4 324

4 413

4 333

4 241

**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**


104,0%

110,4%

102,1%

98,2%


97,9%



## Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni

*2024-yil yanvar-iyun, kishi*
**erkaklar**
**ayollar**


## Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




2024-yilning yanvar-iyun oylarida 4 241 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,1 promillega kamaygani kuzatildi (2023-yilda 4,4 promilleni tashkil etgan).


**O‘lim (vafot etish) – tananing hayotiy faoliyatining biologik va fiziologik jarayonlarini to‘liq to‘xtashi**

**Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha soni va foizi**

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 50,1 % – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 % – o‘simgalardan, 5,3 % – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,9 % – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 % – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 1,0 % – yuqumli va parazitar kasalliklardan, 23,0 % boshqa kasalliklaridan yuz bergan.

**QAYD ETILGAN NIKOHLAR**


Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik

Urganch sh.	459	6,0%
Xiva sh.	396	8,0%
Bog'ot	632	7,2%
Gurlan	691	8,8%
Qo'shko'pir	723	8,0%
Urganch	727	6,8%
Hazorasp	704	6,8%
Tuproqqa'l'a	216	7,3%
Xonqa	804	8,1%
Xiva	647	8,4%
Shovot	688	7,6%
Yangiariq	468	7,6%
Yangibozor	348	7,5%

**Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti  
2024- yil yanvar-iyun, birlik**



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 7 503 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,4 promillega kamaygani kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 7,9 promille bo'lgan).

**NIKOHDAN AJRALISHLAR**
**Yillar kesimida soni**

**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**


Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik

**Urganch sh.**
**137**

1,8%

**Xiva sh.**
**55**

1,1%

**Bog'ot**
**67**

0,8%

**Gurlan**
**63**

0,8%

**Qo'shko'pir**
**92**

1,0%

**Urganch**
**96**

0,9%

**Hazorasp**
**113**

1,1%

**Tuproqqa'l'a**
**46**

1,6%

**Xonqa**
**79**

0,8%

**Xiva**
**48**

0,6%

**Shovot**
**84**

0,9%

**Yangiariq**
**66**

1,1%

**Yangibozor**
**42**

0,9%

**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**

2024-yil yanvar-iyun, birlik

**shahar**
**qishloq**


2024-yil yanvar-iyun oylarida 988 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,3 promille kamayganligi kuzatildi (2023-yil yanvar-iyun oylarida 1,3 promille bo'lgan).

## AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)


2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 5 335 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 6 196 kishini, migratsiya saldosi minus 861 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-iyun oylarida minus 946 kishini tashkil etgan).


### Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

kishi

	2023 - yil yanvar- iyun			2024- yil yanvar- iyun		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	3925	4871	-946	5335	6196	-861
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch sh.</b>	1013	1212	-199	1409	1465	-56
<b>Xiva sh.</b>	242	296	-54	197	488	-291
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog‘ot</b>	101	181	-80	116	179	-63
<b>Gurlan</b>	96	251	-155	163	361	-198
<b>Qo‘siko‘pir</b>	127	276	-149	206	371	-165
<b>Urganch</b>	1007	738	269	1399	986	413
<b>Hazorasp</b>	155	485	-330	216	491	-275
<b>Tuproqqał'a</b>	362	198	164	486	354	132
<b>Xonqa</b>	104	299	-195	145	380	-235
<b>Xiva</b>	267	324	-57	465	357	108
<b>Shovot</b>	127	283	-156	210	326	-116
<b>Yangiariq</b>	188	186	2	156	233	-77
<b>Yangibozor</b>	136	142	-6	167	205	-38

**KO'CHIB KELGANLAR**
*Yillar kesimida soni*

**Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**
**Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar-iyun, kishi*
**erkaklar**
**ayollar**


2024-yilning yanvar-iyun oylarida 5 335 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,4 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 promille bo'lgan).

**KO'CHIB KETGANLAR**
**Yillar kesimida soni**

**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**

**Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**

**1465** *19,2%* Urganch sh.

**488** *9,9%* Xiva sh.

**179** *2,0%* Bog'ot

**361** *4,6%* Gurlan

**371** *4,1%* Qo'shko'pir

**986** *9,2%* Urganch

**491** *4,8%* Hazorasp

**354** *11,9%* Tuproqqa'l'a

**380** *3,8%* Xonqa

**357** *4,6%* Xiva

**326** *3,6%* Shovot

**233** *3,8%* Yangiariq

**205** *4,4%* Yangibozor

**Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024-yil yanvar-iyun kishi*


2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6 196 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 5,0 promille bo'lgan).

## Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlari organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.



**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi**

*Tel: 62 224-65-08*